Irmatova Lola	
Korxonalarda pul mablag'lari auditini takomillashtirish yo'llari.....	1005
Karamatova Noiba Xusnitdinovna	
Hududlarda inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	1010
Qo'ziyoyev Boxodir Azzamboy o'g'li, Ibragimov Behruz Ravshan o'g'li	
Yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikning muhim omilidir	1014
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1022
Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SOLIQLAR YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna

Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), "UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE" dotsenti

Annotatsiya: Maqolada soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish, soliq intizomiga rioya qilish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirishga soliq organlari xodimlari hamda soliq to'lovchilarning o'zaro hamkorligini tashkil etish orqali erishish mumkinligi, bu orqali soliqlarning yig'iluvchanligi va budjet daromadlarini oshirish ta'minlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Soliq va yig'imlar, soliq madaniyati, soliq huquqiy munosabatlari, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliqlarning yig'iluvchanligi, mahalla inspektorlari, moliyaviy savodxonlik.

Abstract: The article discusses how to increase tax literacy and culture of participants in tax legal relations, maintain tax discipline, reduce tax evasion by organizing mutual cooperation between tax authorities and taxpayers, thereby ensuring tax collection and increasing budget revenues.

Key words: Taxes and fees, tax culture, tax legal relations, tax evasion, tax collection, local inspectors, financial literacy.

Аннотация: В статье рассматривается, как повысить налоговую грамотность и культуру участников налоговых правоотношений, соблюдать налоговую дисциплину, сократить уклонение от уплаты налогов путем организации взаимного сотрудничества налоговых органов и налогоплательщиков, тем самым обеспечивая собираемость налогов и увеличение доходов бюджета.

Ключевые слова: Налоги и сборы, налоговая культура, налоговые правоотношения, уклонение от уплаты налогов, сбор налогов, участковые инспекторы, финансовая грамотность.

KIRISH

Bugungi kundagi soliq siyosatidagi eng muhim va dolzarb bo'lgan masalalardan biri – bu soliq munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi soliq qonunchiligi va boshqa me'yoriy hujjatlarning mukammalligini ta'minlash, soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliq to'lovchilarning soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish orqali soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirish, soliq qarzdorliklarini hosil bo'lishini oldini olish, shuningdek mavjud soliq qarzdorliklarini undirish mexanizimini takomillashtirib borib soliqlarning yig'iluvchanligini ta'minlash orqali budjet daromadlarini oshirishga erishishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi tez sur'atlarda rivojlanib, har qanday rivojlangan mamlakat soliq tizimi bilan raqobatlasha oladigan darajaga erishdi. Soliq munosabatlari qatnashchilarining o'zaro hamkorligini ta'minlash, xarajatlarni qisqartirish maqsadida davlat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek: "Yangi fikr va yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat har doim yutadi va rivojlanadi" [1].

Aholining soliq madaniyatini oshirishning ahamiyati tobora ortib borayotgani yanada yangi va zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Soliqlar mavzusi ko'tarilganda soliq to'lovchilarda vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan axborot "bo'shlig'i"ni to'ldirishdagi axborot-tushuntirish ishlari soliq organlarining yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularga soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash haqida ma'lumot berish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Amerikalik sotsiolog, Garvard universiteti professori Jorj Xomans nazariyasiga ko'ra: "Soliq madaniyati bir tomondan soliq va soliq jarayonida ishtirok yetuvchi boshqa organlarning, ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning faoliyati almashinuvining mahsulidir" [2].



A. L. Kuznetsovning fikriga ko'ra "Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirishni soliq organlari xodimlari soliq to'lovchi-davlatning hamkori ekanligini anglab yetmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, demak, soliq to'lovchining muammolariga hurmat bilan munosabatda bo'lish soliq madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi"^[3].

G. V. Morozova soliq savodxonligi va madaniyatining asosiy elementi soliq intizomi bo'lib, u soliq to'lovchilarning ma'naviy va moliyaviy qobiliyatlari va imkoniyatlarini tizimli ravishda o'qitish, rivojlantirish va nazorat qilishdan iborat, - deb ta'kidlab o'tgan^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish usullarini tahlili va ularni o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi, mavzuga bog'liq ko'plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq madaniyati mamlakat milliy madaniyatining bir qismi bo'lib, soliq tizimida davlat va fuqarolarning o'zaro munosabatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagilarni shakllantirishga yordam beradi:

- soliq sohasidagi o'zaro munosabatlar ishtirokchilarining soliq tizimini, soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini bilish va ularga rioya qilish;
- budjet oldidagi majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida bajarilishi, ya'ni soliq va yig'imlarni o'z vaqtida hisoblab chiqarish va davlat budjetiga to'liq o'tkazish;

Soliq to'lovchilar soliq madaniyatining pastligi, jismoniy va yuridik shaxslarning soliq tizimiga nisbatan ishonchsizligi, soliq to'lashdan bo'yin tovlash istagi balandligi daromadlarni yashirish va soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik bilan bog'liq huquqbuzarliklar va jinoyatlar o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Ko'p miqdorda soliq to'lashdan bo'yin tovlashning asosiy sabablariga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- beqaror soliq qonunchiligi;
- mamlakat aholisini xabardor qilish, maslahat berish tizimining yetarli emasligi;
- fuqarolar tomonidan soliq organlariga nisbatan ishonchsizlik;
- soliq munosabatlari subyektlari o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy javobgarlik muammosi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi davlat budjetiga, budjetdan tashqari jamg'armalarga soliq to'lovlarning sezilarli darajada kamayib ketishiga, bu esa nafaqat mamlakat iqtisodiyotining yomonlashuviga, balki jamiyatning yanada sekin rivojlanishiga va buning natijasida budjet daromadlari kamomadining shakllanishiga olib keladi.

Soliq madaniyatining past darajasi, soliq tushumlarining tushushi mumkin bo'lgan miqdori va ularning haqiqiy tushgan miqdori o'rtasidagi tafovut ma'lum darajada soliq savodxonligining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirish usullarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, soliqlar va yig'imlar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ushbu yo'nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

1. Davlatning ijobiy imidjini shakllantirish. Bu qadamning asosiy g'oyasi shundan iboratki, davlatning turli harakatlari, masalan, qonunlar, farmonlar va boshqalar aholi o'rtasida noto'g'ri, chalkash fikrlarni shakllantirmasligi uchun har qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarni imzolash, kuchga kiritishda uni batafsil tushuntirish va talqin qilish kerak. Hozirgi vaqtda soliq qonunchiligi o'zining murakkabligi va noaniqligi tufayli hamma uchun va hamma vaqt ham tushunarli emas, shuning uchun qonun chiqaruvchilar turli huquqiy hujjatlarni chuqur tushuntirishga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Barcha soliq to'lovchilar soliq qonunchiligi to'g'risida to'liq va xolis axborot olishdan manfaatdor. Ko'pgina nizolar faqat soliq qonunchiligining ayrim normalarini soliq organlariga qaraganda boshqacha tushunganligi sababli yuzaga keladi. Boshqa tomondan, soliq to'lovchilarning ko'pchiligi qonunga itoatkor bo'lsagina soliq organlarining faoliyati haqiqatan ham samarali bo'lishi mumkin.
2. Mamlakatning asosiy telekanallaridan birida soliqqa tortish masalalari bo'yicha o'quv-axborot ko'rsatuvini yaratish. Ya'ni, ommaviy axborot vositalari jamiyatda vijdotsiz soliq to'lovchilarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishi kerak.



Soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini tarbiyalash, uning asosi soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilishdir. Soliq madaniyati fuqarolarning davlat va jamiyat uchun siyosiy madaniyatning bir qismi sifatida soliq to'lash muhimligini tushunish va ularni to'lash bo'yicha huquqiy madaniyatning bir qismi sifatida o'z huquq va majburiyatlarini bilishi bo'lib, aslida ular birgalikda soliq madaniyatini tashkil etadi.

Soliq madaniyatini o'sishida soliq to'lovchilarga yuqori darajadagi axborot-tushuntirish xizmatlarini ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishni amalga oshirish quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

- 1) soliq to'lovchilar uchun seminarlar va treninglar o'tkazish. Bunday tadbirlar aholi uchun ixtiyoriy va bepul bo'lishi kerak. Bular shubhasiz aholining soliq savodxonligi va madaniyatining tabiiy o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ammo uni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag' va vaqt talab etiladi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida to'lovchilar bilan ishlash uchun ixtisoslashtirilgan zallarning ochilishi soliq organi bilan aloqalarni imkon qadar shaffof va qulay qiladi. Bu soliq to'lovchilarning soliq idoralari bilan o'zaro hamkorlikda ishlashini tashkil etish bilan birga, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, shu bilan birga ularning soliq madaniyatini oshirish imkonini beradi. Natijada soliq idoralari xodimlarining mehnati ham yengillashadi.
- 3) qishloq joylarda soliq to'lovchilar uchun maslahat xizmatlarini ochish;
- 4) maktab o'quv dasturiga soliq qonunchiligini, soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini, soliq organlarining vakolatlari kabilarni o'z ichiga olgan qo'shimcha kursni kiritish, ya'ni moliyaviy savodxonlik platformasini yaratish. Soliq madaniyatini shakllantirish, ayniqsa, o'smirlik davrida, ya'ni shaxsning jadal ijtimoiy kamolotga yetishi davrida muhim ahamiyatga ega;
- 5) soliq organlarida normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan so'nggi o'zgarishlar to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berish. Soliq to'lovchilar, soliq tushumlari, soliq qarzdorligi, intizomli soliq to'lovchilar va soliq intizomini muntazam buzuvchi soliq to'lovchilar to'g'risida ochiq ma'lumotlarni shakllantirish. Ochiq ma'lumotlarning mavjudligi soliq to'lovchilarning soliq organlariga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu ham soliq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, fuqarolarning soliq organlariga yozma va og'zaki murojaatlariga tezkor va malakali tushuntirish berish, soliq to'lovchilarda soliq xizmatini nafaqat butun jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi davlat organi sifatida emas, balki ular bilan hamkorlikda ishlayotgan har bir fuqaro manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi sifatidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shundagina soliq organi va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlar rivojlanishi mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining savodxonligi va madaniyatini shakllantirish uchun soliq organlari, soliq to'lovchilar, soliq maslahatchilari o'rtasidagi munosabatlarning beryoqlama xarakteridan voz kechish va soliq xuquqiy munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Faqatgina hamkorlik orqali soliq tizimining samarali ishlashini ta'minlash mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirishni soliq organlari xodimlari soliq to'lovchi - davlatning hamkori ekanligini anglab yetmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, demak, soliq to'lovchining muammolariga hurmat bilan munosabatda bo'lish soliq madaniyatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, barcha joylarda soliq qonunchiligini axborotlashtirish, targ'ib qilish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish targ'ibotini yo'lga qo'yish zarur. Fuqarolarni yuksak soliq madaniyatini tarbiyalash yo'nalishidagi bu ish aholining turli qatlamlarini hisobga olgan holda, tizimli, maqsadli va tabaqalashtirilgan holda olib borilishi kerak.

Shuning uchun quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Aholining keng qatlamlarida soliq organlari faoliyatiga jadal rivojlanayotgan, istiqbolli va zarur davlat tuzilmalari sifatidagi ishonchi va iqtisodiy ahamiyatni oshirish.
2. Soliq organlari xodimlari tarkibida mahalla inspektorlari lavozimini takomillashtirish, ya'ni mahallardagi muammolarni hal qiladigan institutga aylantirish maqsadidagi amaldagi tizimga soliq inspeksiyasi hodimlarini ham birlashtirish.

Hudud bo'yicha subyektlarni xatlovdan o'tkazish va belgilangan tartibda hisobga olishni tashkil etish, norasmiy mehnat faoliyatini yuritish holatlarini aniqlash va bartaraf etish, tadbirkorlarga faoliyatini qonuni-



ylashtirishda ko'maklashish, ular bilan profilaktika ishlarini olib borish, onlayn nazorat kassa mashinalari va to'lov terminallaridan to'liq foydalanilishini tashkil etish, soliq hisobotlarini o'z muddatida taqdim etilishini ta'minlash, mavjud soliq qarzini qisqartirish, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarishini ta'minlash, qo'shimcha manbalarni aniqlash hisobiga mahalliy budjetga tushumlarni ko'paytirishdan iborat bo'lib, buning yordamida nazorat qilinadigan hudud haqida aniq ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, mahalla inspektorining faoliyati profilaktika va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat bo'lib, natijada qarzdorlik kamayib, soliqlar yig'iluvchanligi ortishiga, budjet daromadlari ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, soliq to'lovchilarga axborot-tushuntirish xizmatlarini ko'rsatish konsepsiyasini ishlab chiqish hozirda muhim ahamiyatga ega, chunki soliq madaniyatining yuqori darajasi bilangina soliq intizomiga rioya qilish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirish hisobiga soliqlar yig'iluvchanligini va budjet daromadlarini oshirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Innovatsion g'oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq yetish – islohotlar samaradorligining bosh mezoni//Xalq so'zi. №107. –2019. 29-may.
2. Касимов Д.О. Институциональные основы формирования и развития налоговой культуры: Дис. канд. экон. наук: 08.00.10: утв. 13.06.12. – М., 2016.–168 с.
3. Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) [Электронный ресурс].
4. Морозова Г.В. Повышение налоговой культуры населения как способ борьбы с налоговыми правонарушениями // Российское предпринимательство. – 2017. – №3-2 (131).– С. 118-1.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

